



Fidoyilik —  
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 2-may, seshanba,  
51 (23.772)-son

**KUN  
HIKMATI**

Muomala,  
munosabat  
ham inson  
ma'naviyatini  
namoyon  
etadi

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



[www.zarnews.uz](http://www.zarnews.uz) <https://www.facebook.com/zarnews.uz> [https://twitter.com/zarnews\\_uz](https://twitter.com/zarnews_uz)



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
REFERENDUMI  
2023

### O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI REFERENDUMINING DASTLABKI NATIJALARI

Referendumda ovoz bergan fuqarolar  
**16 667 097** nafar yoki **84,51%**

**Ha 90,21%** **Yo'q 9,35%**

## YURT VA XALQ ERTASIGA MAS'ULLIK BARCHANI BIRLASHTIRDI

**Aprilning so'nggi kuni, yakshanba – O'zbekiston xalqi hayotida muhim va tarixiy voqeaga aylangan, kelajagimizni belgilashga asos bo'lgan "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun loyihasi bo'yicha umumxalq referendumini o'tkazildi.**

Ushbu hujjat keng jamoatchilik muhokamasidan o'tdi. Konstitutsiyaviy qonun loyihasi bilan Bosh qomusimiz moddalarini solishtirganda, 128 tadan 155 taga, normalari esa 275 tadan 434 taga ko'paydi. Uning har bir moddasi ustida jiddiy fikrlashildi, xalq bilan birgalikda muhokamalar qilindi. Ya'ni, Konstitutsiyaning yangi tahririni xalqimiz yozdi, o'z fikrini ilgari surdi. Xalq manfaatiga xizmat qilishi kerak bo'lgan hujjat uchun yurtdoshlarimiz bir tanu bir jon bo'lib ovoz berdi.

Xususan, 8.00 da 7-Samarqand okrugi hududidagi 1111 ta referendum uchashtasida ovoz berish jarayonlari boshlandi. Ma'lumotlarga ko'ra, okrug bo'yicha ovoz beruvchilarning umumiy soni 2 million 81 ming 436 nafarni tashkil etgan. Ularning 65 ming nafari ilk bor ushbu siyosiy jarayonda qatnashadigan yigit-qizlardan iborat.

### Rahbarlar ham qatnashdi



Kuzatuvlarimizdan xulosa qilish mumkin, ertangi kunimizni belgilaydigan muhim hujjat – Konstitutsiyamiz yangi tahrirda qabul qilinishi jarayonlariga hamma mas'uliyat bilan yondashdi. Referendumda ovoz berishda oddiy fuqarolar bilan birga davlat va jamoat

arbolari ham faol ishtirok etdi. Xususan, viloyat hokimi E.Turdimov Samarqand shahridagi 42-umumiy o'rta ta'lim maktabida joylashgan 144-referendum uchashtasiga borib, birinchi qatorida ovoz berdi.

- O'zim ro'yxatga olingan saylov uchashtasiga kelishda birinchi bo'lib ovoz beraman, degan xayolda edim, - deydi Kattaqo'rg'on shahar hokimi, Oliy Majlis Senati a'zosi Gavhar Alimova. - Lekin bu yerda yuzlab odam jarayon boshlanishini kutib turganini ko'rib, aholining yurt taqdiriga, ertangi kunimizga befarq emasligini his qildim.

Aslida, Konstitutsiyaviy islohot – bugunning talabi, ertaning kafolatidir. Zotan, qulay mehnat sharoitida ishlash, adolatli xaq olish, davlat hisobidan tibbiy yordamning kafolatlangan hajmiga ega bo'lish Asosiy qonunda belgilanishi fuqarolarning iqtisodiy va ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytiradi.

Ayni shu kabi o'zgarishlar ham yurtdoshlarimizni referendumda faol bo'lishga undadi, deb o'ylayman.

(Davomi 2-sahifada) >>>

**Markaziy saylov komissiyasining qaroriga ko'ra, shu yil 30-apreldagi referendumda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun 2023-yil 1-maydan KUCHGA KIRDI**



## XALQARO EKSPERTLAR AERONAVIGATSIYA MUAMMALARINI O'RGANMOQDA

**Samarqand shahrida "Aeronavigatsiya xizmatlarini joriy etish" va "Uchuvchisiz tizimlar parovzlarini tashkil etish" mavzusida Yevropa va Shimoliy Atlantika - ICAO guruhi-ning 6-xalqaro yig'ilishi o'z ishini boshladi.**

Yurtimizda ilk bor tashkil etilayotgan ushbu tadbirda Markaziy Osiyo davlatlaridan tashqari Rossiya, Fransiya, Turkiya, Moldova, Armaniston dan 50 ga yaqin xalqaro ekspert ishtirok etmoqda.

- So'nggi yillarda yurtimizning aviatsiya tizimi jadal rivojlanmoqda, - deydi - ICAOning Yevropa mintaqasi bosh kotibi Sven Xall. - Bir qator aeroportlar rekonstruksiya qilindi, yangi aviakompaniyalar tashkil etilmoqda. Parovzlar geografiyasi kengaytirilib, mamlakat aeronavigatsiya tizimi modernizatsiya qilindi. "O'zaeronavigatsiya" markazi tomonidan havodagi kenglikdan foydalanish va harakatni

boshqarishda boshqalar ham o'rganadigan jihatlari juda ko'p. Shu bois navbatdagi yig'ilishimiz uchun O'zbekiston tanlandi. Tadbir davomida ekspertlarimiz tomonidan uchuvchisiz qurilmalar va dronlar haqida ma'lumot beriladi. Besh kunlik forumda sohada qo'llanilayotgan innovatsion yangiliklar taqdimotlarini o'tkazamiz.

- O'zbekistonning tashkilotimizga a'zo bo'lganiga 30 yildan ziyod vaqt o'tgan bo'lsa-da, hali biror marta bu kabi tadbirlar o'tkazilmagan edi, - deydi "O'zaeronavigatsiya" markazi direktori Doniyor Jumayev. - Fuqaro aviatsiyamizda yangi davr boshlangach, respublikaning barcha hududlarida havodagi harakatni boshqarish tizimini rivojlantirish va modernizatsiya qilishning yagona, aniq bir maqsadga qaratilgan siyosatini olib borish imkonini paydo bo'ldi. Mamlakatimiz ham ICAO - Yevropa va Shimoliy Atlantika byurosi tarkibiga kiradi. Mazkur xalqaro tashkilot a'zo davlatlarni bevosita qo'llab-quvvatlab, ular faoliyatini muvofiqlashtirib keladi.

Tadbirda har bir davlatdan kelgan mutaxas-

sislar ishtirokchilarga parovzlar oqimini boshqarish borasidagi tajribalarini namoyish etishdi.

- Bugungi kunda Yevropadan amalga oshirilayotgan minglab parovzlar O'zbekiston osmonidan o'tadi, - deydi "Evaair" havo harakatini boshqarish kompaniyasi eksperti, yevronazorat menejeri Dragisa Stankovich. - Shu sababli yig'ilishimiz yurtimizda o'tkazilishida muhim asos bor. Dunyoning turli davlatlaridan kelgan fuqarolik aviatsiyasi sohasi mutaxassislari jam bo'lib, sohada paydo bo'lgan muammolarga birgalikda yechim topish ustida bosh qotirishmoqda. Chunki aviatsiyada ham, aeronavigatsiya sohasida ham hali birgalikda qilinishi kerak bo'lgan ishlar juda ko'p.

Mazkur tadbir O'zbekistonning xalqaro fuqaro aviatsiya hamjamiyatidagi milliy aeronavigatsiya xizmatlari tizimining mavqei oshirishga, sohada erishilgan yutuqlar, so'nggi tendensiyalar, innovatsiyalar va ilg'or tajribalar haqida ma'lumot va fikr almashishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, shubhasiz.

Dilmurod TO'XTAYEV.

## KECHA SAMARQAND SHAHRIDA FAVVORALAR SAYLI O'TKAZILDI



Baxtiyor MUSTANOV olgan suratlar.

## 1-MAYDAN NIMALAR O'ZGARDI?

Huquqbuzar jarima solish to'g'risidagi qaror topshirilgan kundan boshlab 15 kun ichida jarima miqdorining 50 foizini yoki 30 kun ichida jarima miqdorining 70 foizini ixtiyoriy ravishda to'lagan taqdirda, u jarimaning qolgan qismini to'lashdan ozod qilinadi.

2025-yil 1-yanvargacha qadar import qilishda ayrim qurilish materiallari va xom-ashyolarga bojxona bojining nol stavkasi qo'llaniladi.

Banklarga rasmiy daromadga ega bo'lmagan shaxslarga ipoteka kreditini ajratishda ularning to'lov qobiliyatini aniqlashning muqobil usullaridan foydalanishga, shu jumladan, qarz oluvchilarning bank kartasi aylanmasi, ijara, kommunal xarajatlarni inobatga oluvchi skoring tizimini joriy qilishga ruxsat etiladi.

«Ijtimoiy himoya yagona reyestri»ga kiritilgan jismoniy shaxslar ayrim tovarlarning xaridini amalga oshirganda va ushbu xaridni maxsus mobil ilovasida ro'yxatdan o'tkazganda, ularga har oy yakuni bilan xarid summasidan to'langan QQS summasi qaytariladi.

Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori – oyiga 980000 so'm, bazaviy hisoblash miqdori – oyiga 330000 so'm etib belgilandi. Shuningdek, budjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi miqdori 7 foizga oshirildi.

Benefitsiari budjet va korporativ buyurtmachi hisoblangan ayrim to'lovlar bo'yicha to'lov xizmatlari ko'rsatganlik uchun vositachilik haqi to'lovchi – jismoniy shaxsdan emas, balki to'lov summasidan chegirib qolish yo'li bilan undiriladi.

Yuridik shaxslarga elektr energiyasi, tabiiy gaz, issiq suv, ichimlik suv ta'minoti, oqova suv va telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatish bo'yicha shartnomalarni, ularning iste'moli to'g'risidagi hisobotlarni va kelgusi davr uchun shartnomaviy miqdorlar to'g'risidagi bir martalik va davriy hujjatlarni elektron shaklda rasmiylashtirishga ruxsat etiladi.

Foydalanishga topshiriladigan ko'p qavatli uylar tomlari bo'sh qismning kamida 50 foizida quyosh panellarini o'rnatish talabi joriy qilinmoqda.

Barcha yoqilg'i (avtobenzin, suyultirilgan va siqilgan gaz) quyish shoxobchalarining maishiy-texnik ehtiyojlari va hududini yoritish uchun elektr energiyasi ta'minotining kamida 50 foizi ushbu obyektlarda o'rnatiladigan quyosh panellari orqali qoplanishi talab etiladi.

Tijorat banklariga ariza beruvchini masofadan turib identifikatsiya qilish uchun zarur shart-sharoitlar mavjud bo'lganda, ta'sischilari O'zbekiston rezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar hamda YaTtlarga bank hisobvarag'ini masofadan turib ochishga ruxsat etiladi.

## SHARIFA DAVRONOVA –



## OSIYO CHEMPIONI!

Toshkentda U-18 yosh toifasida o'tayotgan yengil atletika bo'yicha Osiyo chempionatida samarqandlik yengil atletikachi Sharifa Davronova qit'a chempionligini qo'lga kiritdi.

U uch hatlab sakrash dasturida 13,99 metr natija ko'rsatib, musobaqa rekordini yangiladi. Shuningdek, Sharifaning bu natijasi 18 va 20 yosh toifalarida jahon miqyosida mavsumning eng yaxshi natijasi sifatida qayd etildi.

# YURT VA XALQ ERTASIGA MAS'ULLIK BARCHANI BIRLASHTIRDI

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

## Takliflar amalga oshishi uchun berilgan ovoz

Samarqand shahridagi Universitet xiyobonida tashkil etilgan 70-referendum uchashtikasi ham hali ovoz berish jarayonlari boshlanmasidan oqov to'xtatib qolgan fuqarolar bilan mavj bo'ldi.

- Hudduda o'n mingga yaqin talaba istiqomat qiladi, - deydi Alisher Navoiy mahallasi yoshlari yetakchisi Farangiz Xudoyorova. - Uch oy avval Konstitutsiyaviy qonun loyihasi muhokama qilindagina ularning bergan fikr va takliflari inobatga olindi. Bugungi referendumda o'sha takliflar amalga oshishi uchun ham ovoz berishyapti.

- Bunday siyosiy jarayonda ilk marta ishtirok etib, ovoz beryapman, - deydi Samarqand davlat universiteti talabasi Malika Hazratqulova. - Ayniqsa, yangilangan Konstitutsiyada yoshlar va xotin-qizlar huquqlariga oid muhim o'zgarishlar qilinayotgani meni befarq qoldirmadi.

Oddiy misol, yangilanayotgan Asosiy qonunimizda ayol kishini homilador ekanligini sabab qilib, bolasi borligini sabab qilib, ishga qabul qilmaslik, ishdan bo'shatish yoki oyligini kamaytirish mumkin emasligi nazarda tutilmoqda. Bu o'zgarishlarga befarq bo'lish mumkinmi?

## Jismoniy imkoniyat huquqni cheklamaydi

Eshitish va ko'rishda nuqsoni bo'lgan kishilarning ham siyosiy jarayonlardagi to'laqonli ishtirokini ta'minlash, jumladan, konstitutsion huquqlaridan foydalanishlari uchun qulaylik yaratildi. Bunga Kimyogarlar shaharchasidagi 106-referendum uchashtikasi ham guvoh bo'ldi.

Uchashtaka 1302 nafar fuqaro ro'yxatga olingan bo'lib, ularning 353 nafari ko'zi ojiz fuqarolardir.

- 28 yildan beri Ko'zi ojizlar jamiyatiga qarashli yotoqxonada yashayman, - deydi SHERALI NAYMANOV. - Bugun qo'shnilarim bilan referendumda qatnashish uchun keldik. Uchashtaka ovoz berishim uchun alohida shart-sharoitlar yaratiladi. Biz kabi odamlar uchun brayl yozuvdagi byulletenlar tayyorlab qo'yilganining o'zi "Inson qadri uchun", degan shior qog'ozda emas, amalda bo'layot-

ganini isbotlab turibdi.

Bundan tashqari, uchashtaka mas'ullari murojaatlarga asosan sayyor tartibda ham ovoz yig'ish uchun joylarga chiqish-moqda.

- 40 yildan beri sport bilan muntazam shug'ulanaman, lekin taqdirni qarangi, 20 yildan buyon nogironlik aravachasiga muh-to'lib qolganman, - deydi armrestling bo'yicha ikki karra jahon chempioni, "Jasorat" medali sohibi Yusuf Qodirov. - Shunga qaramay, Samarqand shahridagi 2-bolalar-o'smirlar sport maktabida murabbiylik qilib kelyapman. Chunki Konstitutsiya menga jamiyatdan ajralib qolmasligimni kafolatladi. Yangilanayotgan loyihadagi bunday huquqlar kengaytirilyapti. Shunday bo'lgach, nogironman, deb uyda o'tirish to'g'ri bo'lmaydi, deb hisobladim.

## Daria Oltinto'p keksalar faolligini e'tirof etdi

Siyosiy jarayonlarning ochiq, oshkora va shaffof o'tishida xalqaro kuzatuvchilar instituti muhim o'rin tutadi. Shu ma'noda referendumni kuzatish uchun yurtimizga kelgan xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar kuzatuvchilari va ommaviy axborot vositalarining 100 nafardan ortig'i Samarqandda bo'lgani e'tiborli.

Ularning ayrimlari Samarqand shahridagi 64-referendum uchashtikasidagi ovoz berish jarayonlari bilan bevosita tanishayotgani e'tiborimizni tortdi.

- 2021-yilda Prezident saylovida kuzatuvchi sifatida qatnashganman, - deydi GOLLANDIYA - O'zbekiston do'stlik jamg'armasi raisi Daria Oltinto'p. - Bugun Samarqand shahridagi bir nechta referendum uchashtikalarida bo'ldim. E'tiborimni tortgan jihat fuqarolarning faolligi, ayniqsa, yoshi ulug' insonlarning ham uchashtikalarga kelib, munosabatini bildirayotgani bo'ldi.

- Men erishadiganimga erishib bo'lganman, - deydi paxtachilik O'zbekiston Qahramoni Do'stmurod Abdullayev. - Bir qarashda meni qiqtiradigan narsa qolmagandek, lekin bo'layotgan o'zgarishlar, Konstitutsion islohotlar boshqalar kabi men uchun ham muhim. Shuning uchun referendumda qatnashishga qaror qildim.

Ishitxon tumani Bog'ixon mahallasida yashovchi 120 yoshli Buvsara momo Saidova ham fuqarolik huquqidan foydalanib, referendumda ovoz berdi. Onaxon uchashtikaga bora olmasligi sababli uning itimosisiga ko'ra komissiya a'zolari ko'chma quti bilan munosib uyiga borib, ovoz berish uchun sharoit yaratib berishdi.

Umuman, tuman va shaharlardagi Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari, yigirma nafardan ortiq 100 yoshdan oshgan fuqarolar uyida turib, ovoz berishda qatnashdi.

## Til, millat, e'tiqod va sharoit tanlagani yo'q

Ota-onam o'zga millat vakili bo'lgani bilan biz, 7 aka-singillarni birov ajratmagan, - deydi 20 yil deganda talaba bo'lgan qo'shrabotlik rus qizi Alisa Ahmedova. - Keyingi yillarda ayniqsa, barchaga o'z iqtidorini namoyon qilishi, katta yutuqlarga erishishi uchun keng imkoniyatlar berilmoqda.

Yangilanayotgan Konstitutsiyada bu islohotlarning izchil bo'lishi, fuqarolarimiz uchun yanada ko'proq qulaylik yaratish tamoyillari belgilanmoqda. Shunday bo'lgach, befarq bo'lmaydigan eng to'g'ri qaror deb bildim.

Darhaqiqat, yakshanba kuni turli millat vakillari, e'tiqodlari turlicha bo'lgan kishilar referendum uchashtikalariga tashrif buyurib, yangilanayotgan Konstitutsiya loyihasiga o'z

munosabatlari bildirishdi. Siyosiy tadbirda hatto o'z hayotida unutilmas kuni bo'layotgan juttliklar ham faol bo'lgani xalqaro kuzatuvchilar tomonidan e'tirof etildi.

Xususan, ijtimoiy tarmoqlar, internet nashrlarida nikohlanayotgan yoshlarning to'y liboslarida referendum uchashtikalariga ovoz berish uchun tashrif buyurgani keng tarqaldi. Shaxsiy hayotidagi muhim sanani nishonlayotgan yigit-qizlar bergan intervyularida bo'lajak avlodlar uchun mas'uliyatini his etib, o'z fuqarolik burchini bajarganini ta'kidlashdi.

**F.RO'ZIBOYEV, A.BAROTOV, S.MARDIYEV,**  
"Zarafshon" muxbirlari.

Joriy yil birinchi choragida xalq deputatlari Payariq tuman Kengashining beshta sessiyasi o'tkazildi. Ularda 52 ta masala muhokama qilindi, 35 nafar mutasaddining hisoboti tinglandi.

## Payariqlik deputatlar kuzatuvchi emas

Raqamlar nimani ifodalaydi, degan savol tug'ilishi mumkin. Bugun Kengash sessiyalari nomi-ga, xo'jako'rsin uchun o'tkazilmayapti. Negaki, mavjud 8 ta doimiy komissiya tumanda faoliyat yuritib kelayotgan siyosiy partiyalar bilan hamkorlikda ish olib bormoqda. Ular sessiyalarga kiritiladigan har bir masalani puxta o'rganib, zarurat bo'lganda, joyiga chiqqan holda muhokama yig'ilishlari o'tkazmoqda. Ayrim hollarda Kengashda ko'rishga ehtiyoj bo'lmaganlari doimiy komissiya tomonidan hal etilmoqda. Asosiy, bugun deputatlar nafaqat muayyan masalalarni

aholining xalq vakillariga bo'lgan ishonchi ortib boryapti. Buni birgina joriy yilning birinchi choragida deputatlar o'tkazgan 45 ta uchrashuvda 136 ta muammo o'rganilgani ham ko'rsatib turibdi. Muhimi, ushbu masalalar va aholi murojaatlarining 129 tasiga ijobiy yechim topilgan, 7 tasiga huquqiy tushuntirishlar berilgan.

Xalq bilan muloqot tufayli deputatlar tuman mahalliy budjetining erkin qoldiq mablag'lari hisobidan amalga oshirilishi zarur bo'lgan eng muhim ishlar haqida aniq xulosaga kelishmoqda. Buning ortidan qator preparatlar xarid qilish uchun 53,2 million so'm mablag' ajratildi.

Albatta, ishingun bu tarzda tashkil etilgan xalq deputatlari tuman Kengashi va deputatlar tomonidan mahalliy ijro organlari faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Xususan, o'tgan

davrdan deputatlar tomonidan 140 ta deputatlik so'rovi ro'yborilib, ijrosi Kengash tomonidan nazoratga olindi.

Rost, hali faoliyatimizda ayrim muammolar ham uchrab turibdi. Misol uchun, ba'zida boshqaruv organlari mutasaddilari tomonidan deputatlik so'roviga qonunda belgilangan muddatda javob qaytarilmasligi kuzatilmoqda. Bunday holatda tegishli doimiy komissiyada o'sha rahbarning faoliyati yuzasidan hisoboti tinglanayapti. Natijada avvalo, ko'tarilgan masala chuqur o'rganilib, muqobil yechimlar berilyapti.

Umuman, o'tgan davrdagi faoliyatimiz va bugungi kun voqeeligi har doimgidan ham faol va samarali faoliyat yuritishni, o'z ustimizda muntazam ishlashimiz zarurligini, eng muhimi, qonunchilikdagi yangiliklardan doimiy xabarador bo'lib borish lozimligini taqozo qilmoqda.

**JAMSHID AXUNOV,**  
xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati.

Respublika Prezidentining 2022-yil 18-noyabrdagi "Bolalarning dam olishlarini tizimli tashkil etish va sog'lomlashtirish ishlarini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tizimida Bolalar sog'lomlashtirish va aholi salomatligini tiklashga ko'maklashish jamg'armasi, Bolalarning dam olishini va sog'lomlashtirilishini tashkil etish departamenti tashkil etildi.



## 10 ming nafar bola oromgohlarda dam oladi

Viloyatimizda 15 ta bolalar oromgohi mazkur departament tasarrufiga o'tkazildi.

- Oromgohlar 1-iyundan ish boshlaydi va to'rt mavsumga bo'lingan holda 2 haftalik muddatga mo'ljallangan dam olish tashkil etiladi, - deydi bolalarning dam olishini va sog'lomlashtirilishini tashkil etish departamentining viloyat boshqarmasi boshlig'i Feruza

Qilicheva. - Davlat tashkilotlarida ishlaydigan ota-onalarning farzandlari kasaba uyushmasi tomonidan yo'llanma asosida oromgohlarga yuboriladi. Yo'llanma narxi 1 million so'm atrofida bo'ladi, uning yarmi Bolalar sog'lomlashtirish va aholi salomatligini tiklashga ko'maklashish jamg'armasi tomonidan to'lab beriladi. Qolgan yarmi ham uchga bo'linadi - bir

## Prezident qaroriga ko'ra

# Samarqandda futbol maktabi ochiladi

Davlatimiz rahbarining joriy yil 7-apreldagi "Ommaviy va professional futbolni har tomonlama rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi huzurida 2023-2024-yillarda hududlarda 14 ta futbol maktabi tashkil etiladi.

- O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi huzurida futbol maktablarining tashkil etilishi yurtimizda futbolning rivojlantirishiga xizmat qiladi, - deydi viloyat yoshlar siyosati va sport boshqarmasi bosh mutaxassisi Shuhrat Karimov. - Shu bilan birga, yoshlarning jismoniy tayyorgarligi, funksional holati, texnik-taktik va psixologik tayyorgarligini oshirish, viloyat va milliy terma jamoalar safiga iqtidorli futbolchilar yetkazib berish hamda legioner futbolchilar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qarorga ko'ra, Samarqandda ham futbol maktabi tashkil etiladi va futbol mashg'ulotlarini o'tkazish uchun malakali trenerlar, o'quv-tarbiya tizimini tashkil etishning eng yangi usullarini qo'llagan holda sport zaxirasi va yuqori mahorati futbolchilar tayyorlash yuzasidan o'quv-mashq jarayoni yo'lga qo'yiladi. Maktab Past Darg'om tumani Balxiyon mahallasi Samarqand shohko'chasi 48-uyda joylashadi.

Shuningdek, barcha yosh toifalari bo'yicha futbol akademiyalari va klublariga mahoratli sportchilarni yetkazib berish, tajriba almashish maqsadida futbol tashkilotlari bilan hamkorlikni rivojlantirish, futbolchilarning sport mahoratini, trenerlar va boshqa mutaxassisning kasb malakasini oshirib borish yo'lga qo'yiladi.

Viloyatda besh yildan buyon futbol akademiyasi faoliyat olib bormoqda. Ayni paytda akademiyada 24 nafar trener o'qituvchi qo'l ostida 150 nafarga yaqin yoshlar shug'ullanyapti. Yuqoridagi qarorga muvofiq, 2024-yilda mazkur futbol akademiyasiga yangi konstruksiyali, 24x48 o'lchamdagi sport zali qurish belgilangan.

**F.FAXRIDDINOV.**

## JINOYAT YO'LI... Yoki uyudagi "jodu"ni topuvchi ayol qismati

Samarqand shahrida bugungi kunda 570 mingga yaqin aholi yashaydi. Ularning 262 ming, 26 ming nafarini xotin-qizlar tashkil etadi.

So'nggi paytlarda xotin-qizlar huquqlariga katta e'tibor berilyapti.

Himoya uydari tizimi yo'lga qo'yilganligi, uy-joyga subsidiyalar, ijara to'lovlarining to'lab berilishi, "Ayollar haftasi" yuritilib, tibbiy davolanishga, uy-joyga, uy ta'miriga, tadbirkorlik uchun boshlang'ich sarmoyaga muhtoj xotin-qizlar doimiy ravishda qo'llab-quvvatlab kelinmoqda.

Biroq gul tikansiz bo'lmaydi, deganlaridek ayrim paytlarda gullar ichidan tikanlar ham chiqadi.

Xayri (ismi o'zgartirilgan) ana shunday o'z galalarining parihonxotiriligidan o'zining foydasiga foydalanganlardan biri. Yoshi 35 dan oshgan, o'g'irlik uchun 3 marotaba sudlangan bo'lishiga qaramasdan, xotin-qizlarga nisbatan yengilroq jazo tayinlanishi, ularga o'z yo'lini topish uchun berilgan imkoniyatni suiste' mol qildi.

Gap shundaki, u 2022-yil 26-noyabr kuni soat 15:50 larda Samarqand shahrida joylashgan xususiy klinikalardan biriga kelib, kasallar yotoqxonasi eshigi ochiq bo'lganligi va hech kim bo'lmaganligidan foydalanib, u yerga kirib, hamshiraning 1,2 million so'mlik "Samsung A-10" rusumli uyali telefon

apparatini o'g'irlab ketgan. So'ngra mazkur telefon apparatini telefon ta'mirlash ustasiga 400 ming so'mga sotgan.

Ana shu 400 ming so'm uchun u sud hukmi bilan 3 yil muddatga ozodlikdan mahrum etildi.

Rohila esa o'zganing mulkini firibgarlik yo'li bilan qo'lga kiritish maqsadida, fuqaro S.N.ning yashash xonadoniga kirib, uyda uyda "jodu" borligi, ushbu "jodu" tufayli farzandlari va nabiralari olamdan o'tishi mumkinligini aytadi. Shu bilan birga tilla taqinchoqlar evaziga "jodu"ni olib tashlashini bildirib, undan ikki dona ayollar tilla uzugi, bir dona tilla zanjir va bir dona erkaklar uzugi, jami 27 million so'mga teng bo'lgan taqinchoqlarni firibgarlik yo'li bilan qo'lga kiritgan.

Albatta, Rohila kabi 30 yoshga kirmasdan odamlarni ustamonlik bilan aldaydigan ayollar barchamizni hushyorlikka chaqirishi lozimki, aks holda, molimizni o'z qo'limiz bilan berib qo'yib, keyin ichki ishlar xodimlarining "bitta odamni topolmasligi" haqida nolihidan foyda yo'q.

Ayollarimizga gul yarashadi, shirino'zlik, pokizalik yarashadi. Jinoyat yo'lga kirish qiyin emas, lekin undan chiqib ketish murakkab. Birinchi qadamlarimizdan doim ogoh bo'laylikki, manzilimiz so'nggi shu qadamga bog'liq.

**I.TO'RAYEV,**  
Samarqand shahar prokurori yordamchisi.

## Bitiruvchilar uchun mehnat yarmarkasi tashkil etildi

Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida ish beruvchilar hamkorligida "Karyera kuni" mehnat yarmarkasi o'tkazildi.

Unda arxitektura, shaharsozlik va qurilish sohasida faoliyat olib borayotgan 70 ga yaqin yirik kompaniya, korxonalar va tashkilotlar vakillari o'zlarining taqdimotlari bilan ishtirok etdi.

- Joriy o'quv yilida universitetni 1234 nafar talaba bitirish arafasida, - deydi universitet rektori Chidem Turkiyilmaz. - Universitetimizda shaharsozlik, arxitektura va qurilish sohasi bo'yicha tayyorlanayotgan mutaxassislar mamlakat qiyofasini o'zgartirishga o'z hissasini qo'shadi. Keyingi o'quv yilida korxonalar va tashkilotlar buyurtmalari va ularning takliflarini e'tiborga olgan holda o'quv rejalariga o'zgartirish kiritib, ilmiy salohiyatiga ega, sifatli, eng muhimi, universal kadrlar tayyorlashga kirishamiz.

Mehnat yarmarkasida 146 nafar bitiruvchi uch tomonlama shartnomalar imzolashga erishdi.



Javlon SODIQOV.



Butunjahon mehnatni muhofaza qilish kuni munosabati bilan «O'ztransgaz» Aksiyadorlik jamiyati Samarqand gaz quvurlari boshqarmasida «Xavfsiz va sog'lom ish muhiti - mehnat sohasidagi asosiy prinsip va huquqdir» mavzusida seminar bo'lib o'tdi.

## Xavfsizlik muhim

Viloyat kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi davlat texnik inspektori U.Ulug'murodov, kasaba uyushmalari viloyat kengashi mehnatni muhofaza qilish bo'limi yetakchi mutaxassisi O.Mizamov ishchi-xodimlarga ish jarayonlarida xavfsiz mehnat sharoitlari yaratish, kasb kasalliklarining oldini olish, baxtsiz va o'limga olib keladigan holatlar va sharoitlar to'g'risida

tushuncha berdi.

Tadbirda ish faoliyatida qo'llaniladigan maxsus ish kiyimlari, zamonaviy mehnat qurollari ko'rgazmasi ham bo'lib o'tdi. Seminar ishtirokchilari boshqarmada ishchilarga yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishgach, ular tomonidan avariya holatlarida qanday ish tutish kerakligini ko'rsatuvchi mashg'ulotlar namoyish etildi.

**Dilmurod TO'XTAYEV.**

Viloyatda kiberjinoyatlarning oldini olish, aholining virtual muhitdagi kiber tahdidlardan ogohliligini oshirish hamda "raqamli immunitet"ni shakllantirish maqsadida joriy yilning 1-7-may kunlari "Syber Week" nomi ostida "Kiber makonda sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish haftaligi" o'tkaziladi.

## "Kiberjinoyatchilikka qarshi kurash haftaligi" boshlandi

Bu haqda viloyat ichki ishlar boshqarmasida Ichki ishlar vazirligi tezkor qidiruv departamenti Kiberxavfsizlik markazi mas'ul xodimi Lochinbek Atoyev va OAV vakillari ishtirokida tashkil etilgan seminar ma'lum qilindi.

Haftalik tadbirlar davomida korxonalar, tashkilotlar, ta'lim muassasalari, shuningdek, bozorlar, savdo komplekslari va jamoat joylarida faoliyat ko'rsatayotgan yurtdoshlarimiz qamrab olinishi ko'zda tutilgan.

Tadbirlarning ta'sirchanligini oshirish maqsadida joylarda taniqli san'atkorlar ham targ'ibot ishlari-ga jalb etiladi. Bundan tashqari, kiberjinoyatlardan himoyalash bo'yicha internetning yutub kanalida targ'ibot lavhalarini joylashtiriladi hamda muntazam ravishda ko'rsatib boriladi.

Mahallalarda kiberjinoyatga qarshi kurashishni targ'ib qiluvchi hamda undan ogoh bo'lishga qaratilgan "Eng yaxshi mahalla", katta yoshdagi aholi vakillari, pensionerlar ishtirokida "Bank kartasi kodini hech kimga bermayman", blogerlar va ijtimoiy tarmoq faollari o'rtasida "Eng ommabop kontent", ta'lim muassasalaridagi yoshlar, ijodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi aholi o'rtasida "Eng yaxshi monolog", "Eng yaxshi insho", "Eng yaxshi she'r", 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar



o'rtasida "Sportli dasturlash" va "Veb-saytimiz xavfsizlik darajasini aniqlash" kabi o'ndan ortiq innovatsion yondashuv asosida tanlovlar o'tkaziladi.

Targ'ibot-tashviqot tadbirlari 7 mayga qadar davom etadi va tanlov g'oliblari taqdirlanadi.

F.RO'ZIBOYEV.

## Uy puli qaytarib berildi

Toshkent viloyati Olmaliq shahrida istiqomat qiluvchi fuqaro Sh. Karimovning 2023-yilning 4-aprelda O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasiga qilgan murojaati hududiy boshqarmaga kelib tushdi.

Murojaatda fuqaro "AGROMIR BUILDINGS" MCHJdan shartnoma asosida ko'p xonali uylardan 3 xonali xonadon xarid qilish maqsadida oldi-sotdi shartnomasi tuzilganligi hamda ushbu xonadon uchun 61800000 so'm to'laganligi ma'lum qilgan. Keyinroq fuqaro ayrim sabablarga ko'ra shartnomani bekor qilish maqsadida 2023-yilning 29-yanvar kuni MCHJga ariza bilan murojaat qilgan.

Ammo to'langan pullar 30 bank ish kunida fuqaroga qaytarib berilishi kerakligini, biroq bu joriy yil 4-aprelgacha amalga oshmagani ma'lum qilib, pullarni qaytarib olishda amaliy yordam so'ragan.

Murojaat ko'rib chiqildi hamda fuqaroning "AGROMIR BUILDINGS" MCHJ bilan tuzilgan shartnomasi bekor qilinib, to'langan 61800000 so'm pul mablag'lari to'liq qaytarib berildi.

J.ASHUROV,  
viloyat raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari.

Markaziy Osiyo mintaqasida qadimiy an'analarini, ya'ni zullisonaynikni (o'zbek, tojik va rus tillarida) XX asrda muvaffaqiyat bilan davom ettirgan ustoz olim, Samarqand davlat chet tillar instituti professori, falsafa fanlari doktori Rustam Shodiyevdir.

## Taniqli faylasuf edi...

R.Shodiyev 1955-yil 9-iyul kuni Samarqand tumani Talli-barzu qishlog'ida dunyoga keldi. Maktabda a'lo baholarga o'qib, Samarqand davlat universiteti-ning tojik filologiyasi fakultetiga o'qishga kirdi. 1978-yilda universitetni bitirib, ilmiy tadqiqotga bel bog'ladi.

Ustoz Samarqand davlat universiteti va Samarqand davlat chet tillar institutida mehnat qildi. Dotsent, professor, kafedra mudiri, ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha birinchi prorektor lavozimlarida ishladi. Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi targ'ibotchisi, faylasuflar milliy jamiyati a'zosi, O'ZMU, Samarqand, Buxoro davlat universitetlari huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi ilmiy seminar va kengash a'zosi sifatida faoliyat olib bordi.

1983-yilda nomzodlik dissertatsiyasini, 1993-yilda akademik M.Xayrullayev hamda professor O.Bozorovlar ilmiy rahbarligida doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

Professor Rustam Shodiyev ma'rifatga baxshida umrining qariyb yarim asrini ilm-fan, ta'lim-tarbiya ravnaqi uchun bag'ishlab, birinчилardan bo'lib Markaziy Osiyo mintaqasida so'fiylik, tasavvuf ta'limoti, falsafiy tafakkur taraqqiyotiga oid qator muammolarni yoritish, yaxlit ilmiy asoslarini ishlab chiqish va ularni yoshlar ongiga singdirishga munosib hissa qo'shdi.

Shodiyev Rustam Toxirovichni aspirantlik davrimdan beri bilan, - deydi professor Jo'raboy Yaxshilikov. - Bu o'tgan asrning 70-80-yillariga to'g'ri keladi. Birgalikda XX asr falsafa fanining darg'alari bo'lgan akademiklar - I.Mo'minov, M.Xayrullayev,



M.Baratov kabi ko'plab professorlarning sabog'ini olganmiz. Fanlar akademiyasining falsafa va huquq institutida birin-ketin avval nomzodlik, keyin doktorlik dissertatsiyalarini himoya qildik.

Olim o'zining teran tahlil va xulosalarga boy maqolalari bilan keng jamoatchilik va o'quvchilar nazariga tushgan. Chunonchi, Rustam Shodiyevning 200 ga yaqin ilmiy-ommabop maqola, 3 ta monografiya, 15 dan ortiq risola, 10 dan ziyod o'quv-uslubiy qo'llanma hamda uchta ilmiy to'plamlari chop etilgan.

2021-yilda Maxpirat nomidagi O'rta Osiyo xalqlari tarixi instituti "Turon" Fanlar akademiyasi tomonidan faxriy akademik ilmiy unvoniga munosib ko'rildi. Ilmiy faoliyati, zahmatli mehnatlari munosib e'tirof etilgandi.

Ustoz turmush o'rtog'i Muzaffara aya bilan birgalikda ikki o'g'il va ikki qizni tarbiyalab, voyaga yetkazdilar.

Mamlakatimiz ilm-fani taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan fidoyi inson bugun oramizda yo'q, ammo uning xotirasi qalbimizda mangu qoladi.

Samarqand davlat chet tillar instituti jamoasi hamda shogirdlari.

## YAKKA TARTIBDA UY-JOY QURISH UCHUN 42 TA YER UCHASTKASI AUKSIONGA CHIQRILDI

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-fevraldagi "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiyashtirish to'g'risida"gi qaroriga asosan viloyatimiz shahar va tumanlaridan mulk va ijara huquqi bilan 5888 ta yer uchastkasi "E-auksion" onlayn elektron savdo platformasiga chiqarilgan. Hozirga qadar elektron savdo maydonchasi orqali 1118 ta yer uchastkasi 30 milliard 892 million so'mga sotildi.

Hozirda "E-auksion" onlayn savdo platformasida viloyat bo'yicha 5 mingga yaqin, Samarqand shahrida 16 ta, Kattaqo'rg'on shahrida 161 ta, Jomboyda 251 ta, Toyloqda 45 ta, Oqdaryoda 297 ta, Past Darg'omda 103 ta, Narpayda 120 ta, Kattaqo'rg'on 273 ta, Ishtixonada 768 ta, Bulung'urda 443 ta, Nurobodda 878 ta, Urgutda 199 ta, Qo'shrabotda 657 ta, Payariqda 286 ta, Paxtachida 109 ta va Samarqand tumanida 164 ta yer uchastkalarini tadbirkorlik uchun savdoga chiqarilgan.

Ilk bor yakka tartibda uy-joy qurish va uy-joyini obodonlashtirish uchun 42 ta yer

uchastkasi mulk huquqi asosida elektron onlayn-auksion savdolariga chiqarildi. Mazkur yer uchastkalari savdolarida ishtirok etish istagidagi talabgorlar "E-auksion" onlayn savdo platformasi orqali ro'yxatdan o'tgan holda o'zi istagan lotlarga onlayn ariza taqdim etish imkoniyati mavjud.

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat hududiy boshqarmasi fuqarolar, tadbirkor va ishbilamonlarni tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun yer uchastkalarini auksion orqali olish uchun shaffof savdolarida ishtirok etishga chorlaydi.

"E-auksion.uz" elektron savdo platformasining ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy kanali:

Web: <https://e-auksion.uz>  
Facebook: [fb.com/eauction.uz](https://fb.com/eauction.uz)  
Twitter: [twitter.com/eauctionuz](https://twitter.com/eauctionuz)  
Instagram: [instagram.com/eauctionuz](https://instagram.com/eauctionuz)  
Youtube: <https://bit.ly/2IOAURT>

Sizda "E-auksion" elektron savdo platformasidan foydalanishda tushunmovchiliklar yuzaga kelsa, "Elektron onlayn-auksionlarni tashkil etish markazi" AJning viloyat hududiy vakili (Qahramon Eshonqulov)ga murojaat qilishingiz mumkin.

Telefon raqamlari: (99) 207-26-07, (99) 207-36-07  
Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiyashtirish shu'basini bosh mutaxassis (Otabek Mirzayev) telefon raqami 99-566-87-09.  
Qo'shimcha ma'lumot olish uchun manzil: Samarqand shahri Kamol Otaturk ko'chasi, 21-uy.

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Samarqand viloyati hududiy boshqarmasi.



REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

## A'LOCHI O'QUVCHILAR TIBBIYOT OLIY O'QUV YURTLARIGA SUHBAT ASOSIDA QABUL QILINADI



Kattaqo'rg'on shahri Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumida bo'lajak tibbiyot xodimlarining o'qib, tibbiy bilim olishlari uchun barcha sharoit yaratilgan. Hamshiralik, feldsherlik, akusherlik, farmakologiya, stomatologiya kabi 6 yo'nalishda 1843 nafar o'quvchiga zamonaviy o'quv binolari, 400 o'rinli yotoqxonaga hamda 200 o'rinli oshxonaga xizmat qilmoqda. Ularga 45 nafar fan nomzodligiga ega tajribali o'qituvchi-murabbiy saboq bermoqda.

O'tgan yili ta'lim muassasasi o'qituvchilari tomonidan 20 ta darslik yaratilib, o'quvchilarga qo'llanma sifatida o'qitilmoqda, - deydi texnikum direktori E.Nurnazarov. - Tahsilni muvaffaqiyatli tugallagan o'quvchilarimiz Samarqand davlat universiteti, Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Toshkent stomatologiya institutiga suhbat asosida qabul qilinadi.

Tohir NORQULOV,  
faxriy jurnalist.



## O'QISHGA MARHAMAT!

O'zbekiston Badiiy akademiyasi tasarrufidagi Samarqand ixtisoslashtirilgan san'at maktab-internati 2023-2024-o'quv yili uchun quyidagi ixtisosliklar bo'yicha qabul e'lon qiladi:

- rassomchilik;
- haykaltaroshlik;
- kulochilik;
- ganchkorlik;
- libos dizayni;
- musiqa.

2023-2024-o'quv yili qabul kvotasiga asosan 1-sinfga 25 nafar va 5-sinfga 30 nafar hamda bo'sh o'rinlarga 20 nafar iqtidorli o'quvchilar tanlov asosida qabul qilinadi.

Arizalar 1-maydan 1-iyungacha qabul qilinib, sinov imtihonlari (matematika, ona tili va tanlagan mutaxassisligi bo'yicha) avgust oyida belgilangan tartibda o'tkaziladi. Ta'lim muassasasi 11-sinf bitiruvchilariga mutaxassislik

### RAHMAT SIZGA, YAXSHILAR!

Salomatligimni tiklash maqsadida Toshkent viloyatidagi "Bo'ston" sanatoriysida dam olib, davolanib keldim. Sihatgoh zamonaviy ta'mirlangan, davolanuvchilar uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Ularning o'z kasbiga mehri tufayli biz davolanuvchilar salomatligimizni anchagina mustahkamlab oldik. Ayniqsa, shirin muomala va kattayu kichikka bo'lgan hurmat bizda katta taassurot qoldirdi.

Sanatoriy direktori Farida Akbarova, davolash ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari Zuhridin Umarxodjayev, qabul bo'limidan Dilfuza Shamsiyeva, shifokor Botir Shaymatov, xo'jalik bekasi Munira opa, hamshiralari va boshqa xodimlarining mehnatidan juda minnatdorman. Ularni 9-may - Xotira va qadrlash kuni bilan samimiy qutlab, el salomatligini taklashdagi xizmatlarida omad tilayman.

Mo'mina GULYAMOVA,  
Samarqand shahri.

### DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Xalikova Zaxroga (1999-yil 7-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

\*\*\*

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ashurova Dilafuz Ziyodullayevna notarial idorasida marhum Yuzbayev Kirjigit Kuchkarovichga (2019-yil 27-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ashurova Dilafuz Ziyodullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 110-uy.

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Muminkulovich notarial idorasida marhum Razzoqov Rasul Ravshanovichga (2022-yil 5-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hazratqulov Mahmud Muminkulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 36-uy.

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Norqulov Alisher Toshbaltayevich notarial idorasida marhum Abdurazakov Sherzod Djaxongirovichga (2020-yil 4-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Norqulov Alisher Toshbaltayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

bo'yicha o'rta maxsus ma'lumot to'g'risida davlat namunasidagi kasb malakasi ko'rsatilgan diplom beriladi. Ushbu diplom bitiruvchilarga mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqini beradi (Asos: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 02.01.2019-yildagi 9-sonli qarori).

San'at maktab-internati manzilgohi: Past Darg'om tumani Juma shahri, Bibixonim ko'chasi, 1-uy. Mo'ljal: Tuman elektr tarmoqlari korxonasi qarshisida.

Telefonlar: +99891-543-64-16,  
+99890-603-16-70, +99890-270-35-66.  
QABUL KOMISSIYASI.

Manzil: Samarqand shahri Firdavsiy ko'chasi, 85-uy.

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ahmedova Farangiz Aslamovna notarial idorasida marhum Alimova Farog'at Kasimovna (2016-yil 13-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ahmedova Farangiz Aslamovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Lutfiy ko'chasi, 80-uy.

\*\*\*

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Mirzayev Abdualim Nazarovichga (2022-yil 26-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

\*\*\*

BEKOR QILINADI  
Fuqaro Djalilov Ilyos Abdualimovichdan Saloxiddinov Ashraf Amriyevich nomiga davlat raqami 30 V 640 PA bo'lgan "KamAZ-53212" rusumli avtomashina uchun 2022-yilda berilgan umumiy ishonchnoma (generalnaya doverennost) yo'qolganligi sababli bekor qilindi.

# KARMANA

## “KARMENO”mi yoki “KATTA MANZIL”mi?



**Buxoro So'g'dining sharqiy chekkasida, Samarqand va Buxoro o'rtasida, qadimiy "Shoh yo'li" ustida joylashgan Karmana muhim markaz sifatida yirik iqtisodiy va harbiy strategik ahamiyatga ega bo'lgan. Karmana shimolda Nurotaning Qoratog' tizmalari, shimoli g'arbda Qizilqum, janubda esa Ziyovuddin-Zirabuloq tog' tizmalari, sharqda hosildor bog'lar bilan o'ralgan, geografik jihatdan juda qulay hududda joylashgan.**

Karmananing qadimiy shahar, hunarmandu savdogarlar ko'p istiqomat qilgan kent ekanligi haqida ma'lumotlar saqlangan. Narshaxiy "Buxoro tarixi" kitobida Karmanaga ta'rif berib, "Karmana Buxoro qishloqlari jumlasidan bo'lib, unda masjid jome' barpo etilgan, adib va shoirlari ko'p bo'lgan", degan qimmatli ma'lumotlarni qoldirgan. Shuningdek, As-Somoni, Istahriy, Muqaddasiy, Yaqubiy asarlarida Karmana iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlangan markaz sifatida tilga olingan. Taniqli geograf olim, atamashunos Suyun Qorayev Karmanani "Xarimankent", ya'ni "Katta manzili kent" shaklida tilga olgan. Rivoyatlarga ko'ra, makedoniyalik Aleksandr Buxoro yerlarini bosib olib, Nur qal'asidan Zarafshon daryosi tomon kelayotganda, baland qir ustidan daryo sohilidagi go'zal, xushmanzara kentni ko'rib, unga mahliyo bo'lib, "Karmeno" deb yuborgan. "Karmen" grekcha so'z bo'lib, "go'zal" degan ma'noni bildiradi. Boshqa manbalarga ko'ra esa arablar bu joylarni ko'rib, "Ka Arminiya" – "Armanistonga o'xshash go'zal joylar", deb nomlagan ekanlar. Akademik A.Muhammadjonov "Karmana" atamasiga quyidagicha ta'rif beradi: "karmana" aslida sug'dcha so'z bo'lib, "Har-man-a" shaklida bo'lgan. "Har – katta, man - manzil" degan so'zlardan olingan bo'lib, "Katta manzil" degan ma'noni anglatadi. M.Is'hoqovning aytishiga qaraganda, Karmana miloddan avvalgi birinchi ming yillikda paydo bo'lgan. Karmana avval "Har – miyona" shaklida bo'lgan. "Har – katta, ulug', miyona – o'rtasi" degan sug'dcha so'zlardan olingan bo'lib, "Katta, ulug' yo'lining o'rtasi", degan ma'noni ham anglatgan. Karmana dastlab 712-yilda eronlik At Tabariyning "Payg'ambarlar va hukumdorlar tarixi" nomli asarida, keyinchalik noma'lum muallif tomonidan 983-yilda yozilgan "Olam chegaralari" nomli asarda tilga olingan.

2022-yilda Karmana tarixini har tomonlama chuqur o'rganish, bu shaharning yoshini aniqlash maqsadida Arxeyo G'ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya institutining ilmiy xodimlari tomonidan Karmana shahri hududida joylashgan Chilatepa, Kunjaktepa va Burqutpepa yodgorligining tarkibiy qismlari bo'lgan ark, shahriston va rabot qismlarining chegarasini aniqlash maqsadida qazuv ishlari olib borildi. Burqutpepa yodgorligi to'g'risidagi birinchi qisqacha ma'lumot 1934-yilda o'tkazilgan Zarafshon ekspeditsiyasining boshlig'i A.Yakubovskiy tomonidan qoldirilgan. Uning yozishicha, yodgorlik ark (kuhandiz), shahriston va rabotdan iborat bo'lgan.

1986-yilda yodgorlikning sxematik plani tuzilgan va uning us-



tidan terib olingan arxeologik topilmalar asosan Burqutpepa eramizdan avvalgi III-II asrlardan to o'rta asrlargacha odamlar yashaganligini ko'rsatadi. Keyingi yillarda arxeolog olim Muhiddin Xo'janazarov boshchiligidagi olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida arkning 8 metr kenglikdagi mudofaa devori ochib o'rganildi va shu bilan birga, arkning shimoliy qismida olib borilgan qazishma ishlari natijasida bu yerda eramizdan avvalgi IV-III asrlarga tegishli arxeologik topilmalar bilan birga yerto'laga o'xshash uy-joyning qoldig'i

larda, ya'ni qoraxoniylar davrida qayta o'zlashtirilganligi aniqlandi. Xususan, bu borada yuqori qatlamlari orasida ushbu davrga oid pishiq g'isht, kulollik idishlari isbotlab turibdi. Bundan tashqari, shahar chekkasidagi Kunjaktepa yodgorligida ham tadqiqot ishlari olib borilib, uning shimoli-g'arbiy tomonida 2x11,5 metrligi va yodgorlikning g'arbiy tomonida 8 metr uzozlikda 2x3 metr o'lchamda shurf qazib o'rganildi. Yodgorlikning shimoli-g'arbiy hududida qazilgan qazishmada ilk o'rta asrlarga oid 4 ta qurilish davriga tegishli paxsa va xom g'isht aralash mudofaa devori qoldiqlari va uning ichki tomonida paxsa devorli turarjoy o'rni qoldiqlari ochib o'rganildi. Xonalardan birida yonma-yon joy-

dan keyin Samarqandda juda katta obodonchilik ishlari amalga oshirgan. Registon maydonida Sherdor va Tillakori, shuningdek, Nodir devonbega madrasalari va ko'plab ko'priklar qurilgan, Siyob bozorini hozirgi joyiga ko'chirgan va uning yonida karvonsaroy, savdo rastalari qurdirgan. Bahodir Yalangto'sh Samarqandda hokim bo'lgan vaqtida madaniyat, adabiyot va san'at rivojlangan, ko'p obodonchilik ishlari amalga oshirgan. Farmon Toshevning "Bahodir Yalangto'sh" dramasi Bahodir

lashgan 2 ta xo'jalik o'rasini qoldiqlari aniqlandi. Ushbu o'ralardan biri xona polining ustiga qurilgan bo'lsa, ikkinchisi xona pol qismini kesib tushirilgan va uning saqlangan qismi chuqurligi 20 santimetr gacha boradi. Ushbu qazishma ishlari jarayonida mudofaa devori orasida so'nggi antik davrga tegishli qadimiy, qizil angob bilan bo'yalgan kosa va xurmacha idishi bo'laklari qayd etildi. Qishloq makonlarida aniqlangan kulollik idishlari o'zining tayyorlanish texnikasi hamda texnologiyasining yuqori sifatligi bilan ajralib turadi. Bu o'z navbatida ushbu idishlarni shahar hunarmandlari yasaganligidan dalolat beradi. Karmana tumani hududidagi arxeologik yodgorliklarni ro'yxatga olish va shu asosda hududning antropogen landshaftini o'zlashtirish joriy yilda ham davom ettiriladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktabrdagi 846-son qarorida 28 ta arxeologik yodgorlik qayd qilingan bo'lsa, tadqiqotlar davomida yana o'ndan ziyod arxeologik yodgorliklar o'rni aniqlandi. Bundan tashqari, o'ndan ortiq mozorqo'rg'onlar jamlanmasida 200 dan ziyod mozorqo'rg'onlar aniqlandi va ularning koordinatalari belgilab olindi. Ayni vaqtda 1970-1980-yillarda buzilib ketgan 3 ta yodgorlik o'rni qayd etildi. Tumanning janubiy hududida esa ilgari noma'lum bo'lgan qoyatosh suratlari ro'yxatga olindi.

2023-yilda Karmana tarixini har tomonlama chuqur o'rganish, bu shaharning yoshini aniqlash bo'yicha GPR (georadar) va magnetometr yordamida Burqutpepa yodgorligini tadqiq etish va shu asosda yodgorlikning to'liq topografiyasini hamda tuman arxeologik yodgorliklari ro'yxatini shakllantirish maqsadida arxeologik qidiruv ishlari davom ettirish va shu asosda hududning o'zlashtirish dinamikasini yoritish maqsad qilingan.

**Komil RAHIMOV, Mo'minxon SAIDOV, Azbiddin XOLMATOV, Yahyo G'ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya instituti ilmiy xodimlari.**

## Bahodir Yalangto'sh haqida nega bilmaymiz?



dan keyin Samarqandda juda katta obodonchilik ishlari amalga oshirgan. Registon maydonida Sherdor va Tillakori, shuningdek, Nodir devonbega madrasalari va ko'plab ko'priklar qurilgan, Siyob bozorini hozirgi joyiga ko'chirgan va uning yonida karvonsaroy, savdo rastalari qurdirgan. Bahodir Yalangto'sh Samarqandda hokim bo'lgan vaqtida madaniyat, adabiyot va san'at rivojlangan, ko'p obodonchilik ishlari amalga oshirgan. Farmon Toshevning "Bahodir Yalangto'sh" dramasi Bahodir

Yalangto'sh hukmronlik qilgan davrdagi ko'p voqealar keng ochib berilgan. Bahodir Yalangto'sh – odil hokim, mehribon olta, kuchli sarkarda. Har narsadan ilmiy yuqori qo'yadigan inson. "Bahodir Yalangto'sh" dramasi yozuvchi Registon ansambli qurilishini mohirona tasvirlagan.

O'qituvchi sifatida dramani maktabda o'quvchilar bilan o'qiganimizda bir o'quvchi savol berdi. "Ustoz, yaqindan buyuk sarkardalar deb internetda ma'lumot izladim, eng kuchli sarkarda bo'lib birinchi o'rinda Amir Temur, ikkinchi o'rinda Bahodir Yalangto'sh, uchinchi o'rinda esa Chingizxon turar ekan. Biz Amir Temurni bo'lalikkand eshitib katta bo'lamiz, uchinchi o'rindagi Chingizxon maktab darsligida bor. Nega ikkinchi o'rindagi Bahodir Yalangto'sh haqida uncha bilmaymiz?", deb qoldi. Shu ma'noda bu kitobni maktablarda o'qituvchilar o'quvchilari bilan muhokama qilishsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Drama orqali kitobxon tarixga narzar tashlaydi, Tarix bilan tanishadi. **Munisa SHAMSIYEVA.**

Yalangto'sh hukmronlik qilgan davrdagi ko'p voqealar keng ochib berilgan. Bahodir Yalangto'sh – odil hokim, mehribon olta, kuchli sarkarda. Har narsadan ilmiy yuqori qo'yadigan inson. "Bahodir Yalangto'sh" dramasi yozuvchi Registon ansambli qurilishini mohirona tasvirlagan. O'qituvchi sifatida dramani maktabda o'quvchilar bilan o'qiganimizda bir o'quvchi savol berdi. "Ustoz, yaqindan buyuk sarkardalar deb internetda ma'lumot izladim, eng kuchli sarkarda bo'lib birinchi o'rinda Amir Temur, ikkinchi o'rinda Bahodir Yalangto'sh, uchinchi o'rinda esa Chingizxon turar ekan. Biz Amir Temurni bo'lalikkand eshitib katta bo'lamiz, uchinchi o'rindagi Chingizxon maktab darsligida bor. Nega ikkinchi o'rindagi Bahodir Yalangto'sh haqida uncha bilmaymiz?", deb qoldi. Shu ma'noda bu kitobni maktablarda o'qituvchilar o'quvchilari bilan muhokama qilishsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Drama orqali kitobxon tarixga narzar tashlaydi, Tarix bilan tanishadi. **Munisa SHAMSIYEVA.**

## Mahoratning kaliti – ishtiyoq

Akademik Aleksey Fokin faoliyatiga bir nazar

Albatta, rossiyalik bu mahoratli shifokor, iqtidorli olim, samimiy inson haqida yozishdan ne muddao degan fikr tug'ilishi tabiiy. Gap shundaki, bu insonning barcha faoliyati O'zbekiston bilan izchil bog'langan. U kishi garchi Sibirda - Chelyabinskda kamolga yetib, dunyoga tanilgan bo'lsa-da, eng avvalo, Ibn Sinoning "Tibbiy qonunlar"i asosida sohasida katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Hatto Ural malakali tibbiy tadqiqotlar institutida rektor bo'lib ishlaydi. O'nlab hamyurtlarimning ilmiy tadqiqotlariga opponent bo'ldi, menga o'xshagan minglab shifokorlarga amaliyotdan dars berdi.

Shuning uchun ham Ural malakali tibbiy tadqiqotlar instituti rektori, Rossiyada xizmat ko'rsatgan shifokor, professor Aleksey Anatolevich Fokin haqida gap ketgudek bo'lsa, o'zbekistonlik tibbiyotchilar unga o'zgacha hurmat bajo keltirishadi.

A.Fokin tanlagan yo'l tibbiyotda eng murakkab yo'l hisoblanadi. U oyoq panjasi va boldir arteriyalarining norekonstruktabel okklyuziyasini revaskulyarizatsiya qilish bo'yicha yangi takliflar bergandayoq tilga tushgan edi. Zero, olim aorta yoyi tarmoqlarining zamonaviy davolash jihatlari puxta o'rganib, bu yuzasidan dok-

torlik dissertatsiyasini himoya qildi. Uning xizmatlari bilan braxeotsefalik arteriyalarni, aorta va oyoqning pastki arteriyalarini, o'pka emboliyasining oldini olishda jarrohiikni qo'llash usulini joriy etdi. Bu tajribalar asosida 1998-yilda Chelyabinsk shahrida onkoangiologik markazi ochildi va u endilikda dunyodagi sanoqli tibbiyot maskanlaridan hisoblanadi.

A.Fokin 2005-yildan buyon Yevropadagi qon tomirlarni o'rganish jamiyati boshqaruvida Rossiyaning vakili hisoblanadi. 2001-yildan esa Rossiya Tabiiy fanlar akademiyasi a'zosi.

Bugungi kunda yurak-tomir jarrohligida eng istiqbolli va zamonaviy invaziv usullarni qo'llashda Aleksey Anatolevich juda katta tajribaga ega bo'ldi. Xususan, uning koronar stendlash, ko'krak va qorin aortasi anevrizmini endoprotezlash, periferik arteriyalarni angioplastika qilish va stendlash kabi usullardagi tajribalari O'zbekistonda ham muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda.

Shu sababli bo'lsa kerak, 2017-yilda bu iqtidorli olim Rossiya angiologlari va tomirlar jarrohligi shifokorlari jamiyatining vitse-prezidenti etib saylandi.

A.Fokinning suhbatida ko'p

## Yonimizdagi odamlar



bo'lganman. U tibbiyotda doimo shifokorning maqsadi, muddaosi, ishtiyoqi va mahoratiga yuksak baho beradi. "Har qanday texnologiya ham shifokorning zehni, zakovati, ko'z qarashi va ishtiyoqi o'rini bosa olmaydi", deydi u. Shuning uchun ham shogirdlarini doimo har qanday kasallikka qarshi kurashda, bemorlarni davolashda ana shu aqidalarga rioya etishga undaydi.

Kamina Aleksey Anatolevichni samarqandlik tibbiyot xodimlari, u kishining O'zbekistondagi shogirdlari nomidan tabarruk 65 yoshi bilan chin qalbdan muborakbod etaman.

**Zayniddin NORMAN, O'zbekiston Journalistlar uyushmasi a'zosi, shifokor.**

**Samarqand deganda ko'z o'ngimizga Registon maydoni keladi. Registonni ko'rish uchun dunyoning har burchagidan sayyohlar kelishadi. Registon maydoni buyuk sarkarda Bahodir Yalangto'sh tomonidan barpo etilgan.**

Xo'sh, Bahodir Yalangto'sh kim bo'lgan? Amir Temurdan so'ng Zarafshon vohasida yetishib chiqqan, XVII asrda Samarqand shahar hokimi bo'lgan Bahodir Yalangto'sh Mirzo Ulug'bek-

dan keyin Samarqandda juda katta obodonchilik ishlari amalga oshirgan. Registon maydonida Sherdor va Tillakori, shuningdek, Nodir devonbega madrasalari va ko'plab ko'priklar qurilgan, Siyob bozorini hozirgi joyiga ko'chirgan va uning yonida karvonsaroy, savdo rastalari qurdirgan. Bahodir Yalangto'sh Samarqandda hokim bo'lgan vaqtida madaniyat, adabiyot va san'at rivojlangan, ko'p obodonchilik ishlari amalga oshirgan. Farmon Toshevning "Bahodir Yalangto'sh" dramasi Bahodir

## Samarqandlik eshkak eshuvchilar Osiyo chempionatida 17 ta medalni qo'lga kiritdi



**25-30-aprel kunlari Samarqandda baydarka va kanoea eshkak eshish bo'yicha U-18, U-23 yosh toifalari hamda para-kanoe yo'nalishida Osiyo chempionati bo'lib o'tdi.**

Chempionatda O'zbekiston, Hindiston, Eron, Iroq, Tailand, Qozog'iston, Tojikiston, Indoneziya, Qirg'iziston kabi Osiyoning 11 mamlakatidan 400 nafar sportchi qit'a chempionligi uchun bahs olib bordi.

Musobaqa natijasiga ko'ra, O'zbekiston terma jamoasi U-18 va U-23 yosh toifalarida umumjamoa hisobida birinchi o'rinni qo'lga kiritdi. Sportchilarimiz mazkur yo'nalishda 26 ta oltin, 12 ta kumush va 10 ta bronza medallariga ega chiqdi. Paralimpiyachilar esa 4 ta oltin, 7 ta kumush va 4 ta bronza medallari bilan umumjamoa hisobida uchinchi bo'ldi.

**MATBUOT UYI**

**Zarafshon**

С АМАРКАНДСКИЙ ВЕСТНИК

**MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi**

**Bosh muharrir: Farmon TOSHEV**

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 17 694 nusxada chop etildi. Buyurtma 233. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

**QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56**

**BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61**

**MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.**

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

**Korxonalar manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi: soat 19:00

**Navbatchi muharrir: A.SHERXOLOV.**

**Navbatchi: O'.XUDOYBERDIYEV.**

**Sahifalovchi: B.ABDULLAYEV.**

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X

9 772010 667009

Sotuvda narxi kelishilgan holda